

TILSHUNOSLIKDA NUTQ AKTI NAZARIYASI VA NUTQIY AKTLARNING QO'LLANILISHI

Abduolimova Maftuna Nurulloxon qizi

Farg'ona davlat univeristeti

Amaliy ingliz tili kafedrasи o'qituvchisi

G'aniyeva Gullola Ma'rufjon qizi

Farg'ona davlat univeristeti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilida bilvosita nutqiy aktlar, ularning yuzaga kelish sabablari, nutq vaziyati, nutq subyektlari haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, maqolada nutq akti nazariyasi alohida ta'lif sifatida dastlab qay tarzda shakllangani to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: bilvosita nutq akt, subyekt va obyekt.

ABSTRACT

This article discusses about indirect defective acts in the Uzbek language, the reasons for their occurrence, speech situation, subjects of speech. In addition, the article reflects on the way in which the theory of the act of speech was originally formed as a separate discipline.

Keywords: indirect speech act, subject and object.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются косвенно дефектные акты на узбекском языке, причины их возникновения, речевая ситуация, субъекты речи. Кроме того, в статье рассматривается, как изначально формировалась теория речевого акта как отдельного учения.

Ключевые слова: косвенный речевой акт субъект и объект.

KIRISH

Til ijtimoiy hodisadir, ya'ni muloqotda yashaydi, rivojlanadi. Muloqotdan ajratilganda esa, u o'z mavqeyini yo'qotib boradi. Insonlar turli xil muloqot jarayonlarida tildagi barcha imkoniyatlardan va vositalardan foydalanishga harakat qiladilar. Tildagi ana o'sha vosita va imkoniyatlar tilning naqadar boy til ekanligini ko'rsatib beradi. Insonlar o'rtasidagi muloqot birligi - bu insonlarning nutqidir. Inson nutqi orqali tinglovchiga o'zining ko'zlagan maqsadini namoyon qilib beradi.

Shuning uchun ham tilshunoslikda nutqiy akt nazariyasini o'rganish doim dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Amerika psixolog Jon Searl aytadiki: "Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek simvol (ramz) so'z yoki gap emas, xatto simvol so'z yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol so'z yoki gapning nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilishi va qo'llanishidir"¹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy tilshunoslikning inson omili bilan o'rganish, tahlil qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bolib qoldi. Insoniyat yashar ekan, lisonidagi mavjud so'zlar tilida aks etadi. Har bir millatga xos nutqiy aktning bilvosita va bevosita ifodalash usullari bordir. Har doim ham gapni o'z egasiga yetkazishda togridan-togri ifodalash yaxshi natija olib kelmaydi. O'zbeklarga xos "Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit" maqoliga xos bo'lgan bilvosita nutqiy aktlar kundalik hayotda ko'plab uchraydi. Ko'chada ketayotgan yo'lovchidan "soat nechi bo'ldi" deya so'ralganda, tabiyki, u vaqtini aytish kerakligini tushunadi, ammo, xuddi shu savolni ishga kech qolgan hodimdan so'ralsa "Kechga qolding" mazmuni anglanishi mumkin.

Nutqiy aktlar so'zlovchi tomonidan aytilgan nutq tinglovchi ruxiyatiga qay darajada ta'sir etishiga ko'ra J.S Yorl tomonidan besh asosiy turga ajratilgan.

- ❖ Deklarativ
- ❖ Representatives
- ❖ Expressive
- ❖ Directives
- ❖ Commissives

Deklarativ nutqiy aktlar. Ba'zi hollarda bu nutqiy akt inson ongida tub burilish yasaydigan jarayonga sabab bo'lishi mumkin.

Ijobiy: "*O'qi otang kabi, eshak bo'lma*". Ushbu misolda "kabi" so'zidan keyin biroz to'xtalib aytilyapti hamda, ijobiy ma'no kasb etmoqda.

Salbiy: "*O'qi, otang kabi eshak bo'lma*". Ushbu misolda "o'qi" so'zidan keyin biroz to'xtalib aytilganligi sababli, salbiy ma'no anglashilmoqda.

Representatives - ushbu nutqiy akt insonning hissiy kechinmalari bilan bog'liq bo'lib, unda nutqiy jarayon so'zlovchi qalbida bir holat sodir bo'lishiga ishonch, tasdiq va aniq jarayonga nisbatan vujudga keladi.

*Xafa bo'lman. Kayfi bor. "Shu holda unga mashinani ishonib bo'ladimi?"
Keling,bir baloni boshlamasin.*

¹ Muhammad Hakimov "O'zbek pligmalingvistikasi asoslari"-T.Akademnashr; 2013, 89-91b.

Ushbu misolda mashina haydashiga ruxsat berish biror bir avtohalokat sodir bo'lishga yo'l ochib berishga ishonch, dalil mavjud bo'lganligi sababli, ushbu nutqiy aktni representative nutqiy akt turkumiga krita olamiz.

Expressive -nutqiy aktda insonlarda kechayotgan qo'rquv, kechirim so'rash, xafa bo'lish kabi kechinmalar sodir bo'ladi.

"-Ke....ke...kerakmas buningiz. Egasini bering, egasiga, -deb astoydil xafa bo'lib, qaytib keta boshladи.....To'rabet yоqa ushlab : -Tavba, shu esipast odam ham o'ljadi-ya.

Ushbu misolda in'om tariqasida berilayotgan narsa noqonuniyligi va narsa birovga tegishli ekani tinglovchida kuchli qo'rquvni paydo qiladi va xatto so'zlarni talaffuz qilishda qiyinchilik yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ikkinci gapda esa, aqli zaif odam ham ushbu in'omni qabul qilishdan bosh tortgani To'rabetda kuchli harakatlanish psixologik jarayonini yuzaga chiqaradi. Bundan bizga ma'lumki, inson qalbi kechinmalarini nutqiy akt orqali ifoda etilishi ekspressiv nutqiy aktlarda namoyon bo'ladi.

Directives- bu nutqiy aktda ikki nutqiy akt egasi bir-biriga muloqot jarayonida direktiv ya'ni, to'g'ridan-to'g'ri holatda buyurish,topshiriq yuklash ohangida suhbat qurbanlarida namoyon bo'ladigan nutqiy aktdir.

"Olinglar, shu bilan hali yana qachon ovqatlanamiz". Ushbu jumladan tushunishimiz mumkinki, dasturxonadagi noz ne'matlardan katta-katta istemol qilishi va tez orada bu yerdan jo'nab ketishga tayyorligarligini ko'rishi lozimlidir.

Commissives - kelajakda bajarilishi so'ralgan yoki talab etilgan holatlarda ikkinchi shaxs tomonidan ushbu vazifani bajarishga rozilik bildirish, vada berish yoki rad etish jarayoni commissive nutq akt orqali bayon ettirilad.

Masalan :

Tuya hommomni orzu qilibdi.

Tushingni suvga ayt.

Chuchvarani hom sanabsan.

Bular kuchli rad etishga urg'u berishga yordam beradi.

XX-asrning oxirlarida nutq akt nazaryasi linguofalsafiy ta'limot sifatida vujudga keldi. Nutq akti tushunchasi avvalroq ham Humboldt, SH.Balli, K.Byuller, M.Baxtin kabi olimlarning ta'limotlarida mavjud bo'lgan, biroq nutqiy akt nazaryasi to'liq bir ta'limot sifatida ingiliz mantiqshunos olimi Jeyn Ostin, amerikalik psixolog Jon Searl va boshqalarning tadqiqotlarida yuzaga keldi. Oxford va Cambridge universitetlarida faoliyat ko'rsatgan faylasuflar lisoniy faoliyatning ko'p vazifaviyligiga va uning insonning hayot kechirish shakli bilan o'zaro chambarchas bog'liq e'tibor qaratishdi. Til insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liq

bo'lib, bu harakatlarning bajarilishi jarayonida gap asl ma'nosidan tashqari, ***tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish*** kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini ham namoyon qiladi. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasi hisoblanadi. Shunday ekan, nutqiy akt nazariyasi ma'lum muhitda, aniq maqsadni ifodalash uchun so'zlovchining tinglovchiga lisoniy murojaatidir.

XULOSA

Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan e'tirof etishgan. Nutqiy akt tushunchalarining yuzaga kelishi lingvistik pragmatika uchun va nutqiy jarayonni o'rganish asosida yuzaga keladi. Aytish mumkinki, nutqiy aktni muloqot tizimining asosiy tayanch birligi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Nutq akti ishtirokchilari umumiyligi nutqiy malakalar, bilimlar va dunyo haqidagi tasavvurlar fondiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Muhammad Hakimov "O'zbek pligmalingvistikasi asoslari"-T.Akademnashr; 2013, 89-91b.
2. Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film //UNS Journal of language studies – 2014. – Vol. 03. – №.01. – P.18.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.
4. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society –1976. – Vol. 5 – №1. – P.1.
5. Choerunnisa R. An analysis of speech acts in the dead poets society: a thesis. – University of Yogyakarta, 2015.
6. Maftuna, A. (2023). CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: A COMPREHENSIVE ANALYSIS OF ITS COGNITIVE AND LINGUISTIC IMPLICATIONS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHЛИLI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(10), 162-164.
7. Maftuna, A. (2023). COGNITIVE-STRUCTURAL INTERPRETATION OF METAPHOR AND LANGUAGE. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHЛИLI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(10), 179-181.
8. Abduolimova, M. (2023, May). Literary and Comparative Analysis of "Godfather" and "Shaytanat". In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 165-168).
9. Komilova, G., & Abduolimova, M. (2023). Development of Competences Referred to in International Assessment Programs And Standards in Foreign

Language Teaching. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 127-129.

10. Abduolimova, M. METAPHORS IN LITERATURE AND DAILY SPEECH.
11. Akhadalievich, A. K. (2023). Modern Approaches to Linguistics: Exploring New Frontiers in Language Research. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 2(6), 9-11.
12. Maftuna, A. (2023). CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: A COMPREHENSIVE ANALYSIS OF ITS COGNITIVE AND LINGUISTIC IMPLICATIONS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(10), 162-164.